

MUQIMIY – ADABIYOT VA IQTISODNI BIRLASHTIRGAN ARBOB

Yo'ldoshev Ozodbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot yo'nalishi 2-bosqich EK-62 guruh talabasi

Uldasevozodbek5@gmail.com

+998936401614 (2 - O. Yo'ldoshev)

Annotasiya:

Maqolada O'zbek adabiyotining mashhur hamda yorqin namoyondasi, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab, ijod qilgan Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning adabiyotdagi iqtisodiy va siyosiy qarashlari, o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasini o'rganishga qaratilgan. Muqimiy asarlarini tahlil qilish natijasida o'sha davrdagi uning iqtisodiy yondashuvlari hozirgi kundagi mikro va makro darajadagi dunyo iqtisodiga qanchalik bo'g'liq ekanligi o'rganiladi. Shu bilan birga, Muqimiyning adabiyotshunoslikka yo'naltirilgan asarlari ham e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy tuzilmalar, tipologik, jadidlar, matbuot, ijtimoiy-iqtisodiy, demokratik adabiyotshunos, satirik, hajviy asarlar, milliy, tariximiz, tadqiqot, iqtisodchi kadr.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ma'naviy rivojlanishga juda katta e'tibor qaratildi. Mustaqillik yillarida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida bo'lganidek, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy yo'nalishlarda ham milliy o'zligimizni anglash, millatimiz tarixining noma'lum sahifalarini, milliy adabiyotimiz tarixini qaytadan o'rganish, asossiz ravishda unutilgan ijodkorlar hamda tafakkurimizning boy ilmiy ijodiy merosini yoritish bilan bog'liq izlanishlarga imkoniyatlar eshigi ochildi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich o'zbek xalqining adabiy-tarixiy merosini yanada chuqurroq o'rganish, ajdodlarimizning biz – barkamol avlodga qoldirgan qimmatbaho asarlarini o'qish hamda ilmiy tahlil qilish maqsadida 2017-yil 18-aprel kuni Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog'da joylashgan “Adiblar xiyoboni” tashkil etish bo'yicha qarori qabul qilindi hamda 2020-yil 20-may kuni “Adiblar xiyoboni”ga tashrifi aynan ushbu maskanni rasman ochib berish bo'ldi. Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz, - dedi Prezidentimiz tashrifi chog'ida. 8 gektardan ziyod Adiblar xiyobonining me'moriy adiblar ansambli yaratilib, hozirgi kunda 24 ta adiblar haykallari qad rostlagan hamda ushbu adiblar 24 ta oliy ta'lim muassalariga yanada chuqurroq o'rganish uchun bo'lib berildi. Ushbu oliy ta'lim muassasalari tomonidan adiblar ijodi bo'yicha turli xil loyihalar, ilmiy izlanishlar, targ'ibot ishlari hamda uchrashuvlar tashkil etiladi. Shuningdek, barcha oliy ta'lim muassasalari ichida

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Muhammad Aminxo'ja Muqimiy hayot - ijodini o'rganadi, talaba-yoshlar uchun turli xil qiziqarli va iqtisodiy loyihalarni amalga oshirmoqda. Universitet hududida Muqimiy haykali o'rnatilgan bo'lib, uning hayoti – ijodi muzeyi tashkil qilingan. Muqimiyshunoslikda amalga oshirilgan salkam bir asrlik tarix yoritilgan bo'lib, unda qiyosiy-chog'ishtirma, tarixiy-tipologik metodlardan foydalanilgan.

Milliy madaniy markazlardan biri Qo'qon shahrida 1850-yilda buyuk adib Muhammad Aminxo'ja Muqimiy tavallud topgan. Muqimiy nafaqat mutafakkir, bakli, tarixchi, siyosatchi va iqtisodchi hisoblanadi. Muqimiyning hayot yillari boshqa adiblar hayoti bilan farq qilishi bilan ajralib turadi. Hayoti nochorlikda o'tgan Muqimiy aslida taxallus bo'lib asl ismi Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li otasi toshkentlik, onasi esa Oyshabibi xo'janddan bo'lib, ular Qo'qonda yashaganlar. Buyuk shoir, demokratik adabiyotshunosning onasi Oyshabibi Muhammad Aminxo'jaga she'riyatga havas uyg'otgan. Muqimiy Qo'qondagi Nodira bino qildirgan «Moxlar oyim» madrasasida, so'ng Buxoro madrasalaridan birida o'qigan. 1876-yilda Qo'qonga qaytgach, yer qurilishi mahkamasida mirzalik qilgan. 70-yillar oxirlarida Qo'qonga qaytgan va ijod bilan shug'ullangan. Otasi vafotidan so'ng moddiy ahvoli og'irlashgach, 1885-yilda «Hazrat» madrasasining kichik bir hujrasiga ko'chib o'tgan, butun umri qashshoklikda kechgan.

Muqimiyning sa'y-harakati va tafakkuri bilan muhit o'rtasidagi ziddiyat uning ijodida tanqidiy yo'nalishni maydonga keltirib chiqargan. Muqimiy chor amaldorlar.ning yoki mahalliy ayrim boylarning kirdikorlariga loqayd bo'lmaganidan, ularning kirdikorlarini o'z asarlarida yoritib bergan. Bugungi kunda Muqimiyning hayoti va ijodini o'rganish, targ'ibot qilish, tahlil qilish o'zining shaxsiyatini yaratmoqchi bo'lganlarga, ayniqsa, iqtisodchi mutaxassislarning izlanishi ahamiyatga ega.

Muqimiy o'z davri jamiyatining qiyinchiliklarini, iqtisodiy va ijtimoiy holati haqida o'zining iqtisodiy yondashuvlarini ulashgan, soliqlarni va lavozimini suiste'mol qilgan davrning hukmron boshqaruvchilarini va ularning olib borayotgan siyostlarini kuchli tanqid ostiga olib bir qancha hajviy asarlar, yumorlar yaratib uni jamiyatiga hadya etgan holda jamiyatning qalbiga kirib, shuhrat qozongan. Demokratik adabiyotshunos ta'kidlashicha, soliqlarning juda yuqori bo'lganligi, xalqning turmush tarzini og'irlashtirgan omillardan biri bo'lgan. Agar shunaqa soliqlarning oshishini bartaraf etish hamda unga optimal yechim berisha olmasa, ocharchilik muammosi, shu bilan birga jamiyatning tanazulliga turtki bo'lishini ta'kidlab o'tgan. Uning bu iqtisodiy qarashlari hozirgi zamonda ham keng o'rganilmoqda va uning yondashuvlari to'g'ri ekanligiga yanada amin bo'lishmoqda.

Uning taqsinga loyiq asarlaridan bo'lgan “Sayohatnoma” asarini, iqtisodiyotga doir asarlari “Tanobchilar” hajviyasi, shu jumladan “Loy”, “Burun”, “Ko'saman”, “Bezgak” va “Otim” yumoristik she'rlari shoir ijodining abadiyatini saqlab turuvchi mumtoz adabiy meroslardandir desak, albatta, mubolag'a bo'lmaydi.

“Tanobchilar” hajviyasinin tahlil qiladigan bo’lsak, ushbu hajviy asar adibning enhg mashhur satiralaridan biri hisoblanadi. Adib ushbu asarini 1876-yilda Buxoroda madrasadagi ta’limini tugatib, Qo’qonga qaytib kelganidan keyin yer qurilishi mahkamasida mirza lavozimida ishlab yurib, amaldorlar va davlat boshqaruvidagilarning xalqqa qilayotgan nohaqliklariga befarq qarab tura olmasdan ushbu hajviy asarini yaratadi. **Asarda mehnatkash kambag'al chorakor dehqon mehnatidan o'z manfaatlari uchun foydalangan, ularni aldab katta zarar yetkazgan mahalliy amaldorlar Sulton Ali va Hakimjonlar qiyofasi orqali Muqimiy tomonidan o'tkir misralarda fosh etiladi.**

TANOBCHILAR

**Bo'ldi, taajjub qiziq hangomalar,
Arz etayin endi yozib nomalar.**

**Adl qulog'i-la eshit holimi,
Zulm qilur, baski, menga zolimi.**

**O'n iki oyda keladur bir tanob¹,
O'zgalara rohat-u menga azob.**

Ushbu satirik hikoya mehnatkash dehqonning amaldorga arz-dodi bilan boshlanadi. Asarning boshlanishi shu davrdagi barcha qatlamdagi aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini aks ettirish bilan boshlangan. Yuqorida keltirib o'tilgan misralardan amaldorlarning aholiga, ayniqsa, kambag'allarga qilgan zulmini ko'rishimiz mumkin. Bunda har 12 oyda keladigan tanob aholi va dehqonlar uchun yangi qiyinchiliklar keltirib chiqarishi haqida fikr bildirilgan. Ushbu tahlil natijasida Muqimiy davridagi jamiyatning, turmush tarzi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli juda og'ri kechganligini bilib olishimiz mumkin.

Buyuk adibimizning ushbu satirik hikoyasida “Xoh tanobingni duchandon qilay” misrasi bor bo'lib,,, Men xohlasam tanobingni ikki barobarga oshiraman“ degan ma'noni bildiradi. Ya'ni noqonuniy ravishda yer maydonlarini ko'p ko'rsatib, undan olinadigan soliq miqdorini oshirish nazarda tutilgan. Bu davrda soliqlar bevosita soliq yig'uvchi shaxslar xohishiga ko'ra amalga oshirilgan. Ya'ni soliq tizimi bevosita insonlar tomonidan boshqarilgan va nazorat qilingan. Shundan kelib chiqqan holda, yer maydonlarini to'g'ri yoki noto'g'ri ko'rsatilganligini aniqlashning va uni nazorat qilishning deyarli imkoni mavjud bo'lmagan. Shuning uchun aholining yer maydonlarini va undan undiriladigan soliq miqdorlarini belgilash to'g'ridan to'g'ri tanobchilarga bog'liq bo'lgan. Muqimiy „Tanobchilar“ asarini bevosita shu davrning soliq tizimiga bog'lagan holda yozgan. Ya'ni bu davrdagi ba'zi adolatsiz

¹ 1 tanob = 60x60 kv metrga teng. Tanob o'sha davr tili bilan nomlangan yer solig'i

tanobchilarning o'z asarida tasvirlash va ular qilayotgan noto'g'ri ishlardan jamiyatdagi odamlarni ogohlantirish, ayniqsa shu tizim vakillari bo'lmish tanobchilarni insofga, adolatga chaqirgan. Bu kabi illatlar mavjud bo'lgan jamiyatda iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanish dargumonligini ushbu misralarni o'qib o'rganish orqali ushbu xatolarni takrorlamaslikka harakat qilishimiz kerakligini bilib olishimiz mumkin. Muqimiyning iqtisodiyotga taaluqli asarlaridan biri bo'lgan “Veksel” adabiy merosini ham tahlil qilsak bo'ladi. Ushbu asarda mamlakatga kirib kelayotgan vekseldan davlat boshqaruvchilari hamda amaldorlari o'z manfaatlari yo'lida qo'llashlari va bir qancha muammolarga sababchi bo'lgani haqida yozgan. Muqimiyning har bir asarida jamiyat farovonligini o'zining yaxshi yashashidan ham ustun qo'ygan. Shoirning asarlarida xalqning umumbashariy qadriyatlariga, an'analarga to'xtalib o'tganining guvohi bo'lamiz. Muqimiyning ushbu sa'y-harakatlaridan ilhomlanib bir qancha iqtisodchi tadqiqotchilarimiz tomonidan aytilgan: “Kulgu – bu oxirgi bosqich. Agar xalq hukumatdan jahli chiqmoqdami, demak hali vaqt bor. Agar hukumatni va uning qarorlari ustidan turli xil hikoyalar, latifalar aytmoqdami, demak vaqt yetib keldi” jumlasini ta'kidlab o'tishni lozim topdim. Muqimiy o'z davridagi hukumat ustidan hajviy tarzda asarlar yozganmi demak, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, o'sha vaqtdagi vaziyat oxirgi bosqichga yetib kelganini anglashimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, millati uchun, jamiyati uchun bu darajada kuyungan va butun hayotini xalqining manfaatini o'zining manfaatidan ustun holda qurgan shoirni qanchalik ardog'lasak ham kamdir. Muqimiy o'z asarlarida o'zining iqtisodiy qarashlarini shoirona tarzda yaratgani, asarlari ortidan bizga mustamlakachilik davrining ahvoli, qiyinchiliklari, ijtimoiy-iqtisodiy qarashlarinin va insonning fazilatlari, Vatanni sevishni yorita olgan buyuk mutafakkir demokratik adabiyotshunosdir. Muqimiyning hayoti va ijodi doim insonlar uchun vatanparvarlik namunasi bo'lib, uni o'rganish, tadqiq qilish, tahlil qilish, targ'ibot qilish ommaga, xususan, bo'lajak iqtisodchi kadrlar va rahbarlarga darsturamal bo'ladi desak, albatta, adashmaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-alisher-navoiy-nomidagi-ozbekiston-milliy-bogida-barpo-etilgan-adiblar->
2. Maxmudov.N.M, Avazov.N.R, “Muqimiyning iqtisodiy qarashlari”. Ilmiy risola – T.:”IQTISODIYOT”, 2021. – 56 bet.
3. Qo'ldosh Pardayev Muqimiy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili
4. Meliqulova B. Tashabbus qanot yozdi: Muqimiy ijodi izidan... O'zA. 2020 yil 20 iyun.
5. <https://tafakkur.net/muhammad-aminxoja-muqimiy.haqida>
6. <https://kknews.uz/oz/1715.html>
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/muhammad-aminxo-ja-muqimiy-hayoti-va-faoliyatining-o-rganilishi/viewer>
<https://kknews.uz/oz/1715.html>